

SEMANTIK MAYDONNING MANTIQIY TUZILISHI

Nazarov Sardor Shomurodovich

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM mustaqil
tadqiqotchisi*

THE LOGICAL STRUCTURE OF THE SEMANTIC FIELD

Nazarov Sardor Shomurodovich

*Independent researcher of NTM, University of Economics and
Pedagogy*

ЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ

Назаров Сардор Шомуродович

*Независимый научный сотрудник НТМ, Университет
экономики и педагогики*



Sardornazarov77777@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0240-0323-0003>

Annotatsiya: Maqolada semantika va semantik maydon tushunchasi, ularning mazmun-mohiyati yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslikdagi maydon atamasi haqida tafsiflar va tadqiqotlar borasida so‘z yuritilgan. Semantik maydonning tahlil usuli sifatida yuzaga kelishi va taniqli tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy lingvistika, semantika, semantik maydon, lisoniy birlik, so‘z, tushuncha.

Abstract: The article describes the concept of semantics and semantic field, their essence. The term field in modern linguistics is discussed in terms of descriptions and researches. Information about the emergence of the semantic field as a method of analysis and research conducted by well-known linguists is given.

Key words: modern linguistics, semantics, semantic field, linguistic unit, word, concept.

Аннотация: В статье раскрыты понятия семантика и семантическое поле, их сущность. Терминологическое поле в современной лингвистике обсуждается с точки зрения описаний и исследований. Приводятся сведения о возникновении семантического поля как метода анализа и исследования, проводимого известными лингвистами.

Ключевые слова: современное языкознание, семантика, семантическое поле, языковая единица, слово, понятие.

Kirish. Zamonaviy lingvistikada semantika muammosi birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lganki muloqot jarayonida nutq birliklarining ishslash qonuniyatları vazifasini asoslab berish zarurati tufayli muhim ahamiyatga ega. Biroq tilni uning kommunikativ maqsadi nuqtai nazaridan va semantik nuqtai nazaridan o‘rganish muqarrar ravishda tilning yuzaki shakllari chegarasidan chiqishni taqozo etadi. Shuning uchun ham oxirgi paytlarda tilshunoslik til mexanizmining chuqur asosiy qonuniyatlarini tushuntirishga murojaat qildi, shu munosabat bilan til semantikasiga metodik

yondashuv va umumiyl uslubiy bo‘lgan bir qator yangi muammolar paydo bo‘ldi. So‘z semantikasini o‘rganish, leksik birliklarni mazmunini tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikda asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy tilshunoslikda so‘zning mazmun tomonini o‘rganishda tilshunos F.de Sossyurning tilli soniy belgilari tizimi ta’limotiga asoslanadi. Qiymat tushunchasi, F.de Sossyurning fikricha, til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro shartliligi ta’rifi bilan chambarchas bog‘liq, ya’ni ularning

mohiyatini to‘g‘ri va obyektiv [1]. Til belgisining qiymati haqidagi fikr til faktlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki tizimdagи birliklар o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish lingvistik tavsifi orqali yuzaga kelgan. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimidagi bir xil darajadagi muayyan lisoniy birliklarni o‘rganish ikki asosiy turdagи munosabatlarga asoslangan: sintagmatik va paradigmatic va bunga F.de Sossyur tomonidan birinchi marta aniq chegara qo‘yilgan. U, bir tomonidan, so‘zlarni nutqda bir-biri birlashib, chiziqli tabiatga asoslangan munosabatlarga kirishib, elementlarni bir vaqtning o‘zida talaffuz qilish imkoniyatini istisno qiladi deb belgilab beradi. Bu elementlar nutq oqimida birin ketin qatorda joylashadi [2].

F. de Sossyur tomonidan elementlarning bunday birikmalari sintagmalar deb ataladi va ularning komponentlari orasidagi munosabatlar sintagmatik deyiladi.

Sintagmaning komponenti faqat o‘zidan keyingi yoki oldingi, yoki birga kelganiga ko‘ra qarshiligidagi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu munosabatlar butunlay boshqacha tabiatga ega. F. de Sossyur bu munosabatlarni assotsiativ (zamonaviy terminologiyada paradigmatic) deb ataydi [3].

Natijalar. Zamonaviy leksikologiyada yangi g‘oyalilar va usullarni hisobga olgan holda leksik ma’noning tabiatni, ma’no turlari, so‘zlarning semantik aloqalari va tizimliliqi masalasini va boshqalar o‘rganish davom etmoqda. Semasiologiyaning eng muhim muammolari haqida umumlashtiruvchi tadqiqotlar yaratilgan.

Eng mashxur zamonaviy semantik tadqiqotlardan tizimli munosabatlarni o‘rganish usuli bo‘lib – bu maydon yondashuvi deb ataladi, uning mohiyati so‘zlarning semantik hamda struktur-semantik sinflarini aniqlashdan iborat.

“Maydon” atamasi odatda umumiy mazmun bilan birlashtirilgan va kontseptual, mazmunli aks ettirilgan yoki funksional o‘xshashlikga ega so‘zlar to‘plamini anglatadi [4]. Zamonaviy tilshunoslikda maydon tushunchasi umumiyligi til tizimning eng katta semantik aloqador qismlarini birlashtiruvchi va uning kichikroq tarkibiy qismlari o‘rtasidagi ierarxik munosabatlar ochib beruvchi, o‘zgarmaslik xususiyatiga ega bo‘lgan strukturaviy-semantik

kategoriya yoki ma’lum bir tushuncha sifatida qabul qilinadi. Shunga asoslanib, semantic maydon alohida semantic xususiyatlar bilan bog‘langan turli strukturaviy-semantik birlashmalarga bo‘linadi.

Lingvistik adabiyotda ular mavzulashgan guruuhlar (qator, maydonlar), leksik-semantik guruuhlar va boshqalar deyiladi. Mavzulashgan guruuhlar tadqiqotining boshlang‘ich nuqtasi ushu faktdan iboratki, har bir tilning lug‘at tarkibida ozmi-ko‘pmi ularning asosiy semantik mazmuniga mos keladigan yaqin so‘zlar qatori mavjud [5]. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, tizimda va lug‘atni o‘rganishda maydon tahlili usulining keng qo‘llanilishiga qaramasdan lingvistik tadqiqotlar bu usul mavjud sezilarli kamchiliklarni ko‘rsatadi [6].

XX asrning 40-yillarda so‘zlarni semantik maydonlarga ajratishning yangi metodi yuzaga keldi. Bu qarash Praga maktabi tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u differensial-semantik tahlil etish deb nomlandi. Bu metod asosida so‘z leksik ma’nosini semema deb olinib, komponentlari sema deb qaraladi. Leksema sememalari umumlashtiruvchi, ya’ni arxisemaga ko‘ra bir semantik maydonni tashkil qiladi. Bu semantik maydon maydonchalarga, ya’ni guruhlarga bo‘linib, ular integral semasi asosida o‘zaro birlashadi. Semantik maydonga kiruvchi har bir leksema sememasi differensial semasiga ko‘ra boshqa semalardan ajralib turadi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, dastlab semantik maydonlar mantiqiy-semantik jihatdan ajratilgan bo‘lsa, bu metodga ko‘ra lingvistik-semantik jihatdan maydonlarni tashkil qiladi. Semantikaning keyingi taraqqiyotida Ch.Pirs, F.de Sossyur va Ch.Morrisning qarashlari alohida ahamiyatga ega. O‘zbek tilshunosligida I.Qo‘chqortoyevning so‘z va uning ma’no valentligiga, Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov, Ra’no Sayfullayevalarning leksema, semema, semalarga, R.Rasulovning holat fe’llariga, Sh.M.Iskandarovaning otlardagi shaxs mikro maydoniga, N.R.Nishonovaning “hayvon” arxisemali leksemalar maydoni tahliliga, S.X.Muhamedovaning harakat fe’llari semantikasiga, H.Tojimatovning sifat semantikasiga bag‘ishlangan ishlarini va boshqa olimlar tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. Sh. Safarov va M. Mirtojiyevlar o‘zbek tili semantikasi

va semasiologiyasini yangi bosqichga olib chiqdilar. Semantikaning asosiy masalasi sifatida leksik ma’no va uning taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisalarni qayd qilish lozim [7].

Muhokama. So‘zni semantic maydonlarga ajratishda dastlab “tushuncha maydoni” dan kelib chiqib yondashiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, har bir so‘z bir ma’lum bir “tushunchalar guruhi” ga, ya’ni semantic maydonga kiradi va hech biri oraliq holatida qolmaydi. So‘z ma’nosining tarixiy taraqqiyoti o‘zgarmas holda tuzilgan maydonning qayta qismлага bo‘linishi sifatida izohlanadi. Demak, so‘zning semantic maydonga mansubligi sinxron xarakterga ega bo‘lib, davrlar osha o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Shuningdek, semantic maydonda so‘zlar bir-biri bilan tutashmasligi qayd etiladi. So‘z ma’nolarining bir-biriga tutashmasligi nisbiy tushuncha bo‘lib, etimologik tahlillar turli maydonga mansub leksemalarning semantic jihatdan bog‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur aloqadorliklar semantic to‘rlarni yuzaga keltiradi. Bu esa semantic maydon tushunchasining semantik to‘rlar bilan to‘ldirilishini taqozo qildi.

Maydon tushunchasining uzil-kesil shakllanishiga yordam bergen hal qiluvchi tadqiqotlardan biri L.Vaysger berningishlari bo‘ldi. Vaysgerber fikricha, tilni ruhiy mazmunning oddiy vositasi sifatida emas, balki dunyoni intellectual shakli sifatida o‘rganish zarur, uningcha semasiologiya ma’nolar xususidagi fan bo‘lmay, tushunchalar. Haqidagi ta’limot bo‘lishi kerak [8]. Bu ishlardan kelib chiqqan holda, Y.N. Karaulov “maydonning asosiy xususiyatlarini” quyidagicha belgilaydi [9]:

1. maydon elementlarining o‘zaro aloqasi: bunda elementlarning mazmuniy o‘xhashligi, mazmuniy munosabatdorligi (semantic korrelyasiysi) obyektga bo‘lgan munosabati nazarda tutiladi;

2. maydon elementlarining bir-biridan farqlari asosida belgilanishi, ba’zan bu xususiyat o‘zaro almashinish sifatida ham ta’riflanadi;

3. mazmuniy maydonlarning mustaqilligi (yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqadi;

Xulosa. Maydon tushunchasining talqini hamda unga xos xususiyatlarga ayrim holda

yondashuv maydon nazariyasini tadsih etishning turlicha muammolarini vujudga keltirdi. Maydonning u yoki bu, xususiyatlari tayanib, ushbu muammolar tadqiqotchilar tomonidan turlituman ravishda o‘z yechimini topmoqda. Shunday qilib, hali o‘zbek tilshunosligida til birliklarini maydon asosida o‘rganish keng yo‘lga qo‘ylGANI yo‘q. Bu usul, bizning nazarimizda, ayniqsa, leksikani o‘rganishda katta ahamiyatga ega. O‘zbek tili leksikasini makro maydon sifatida qaralgani holda, uni mikro maidonlarga ajratishi deografik, lug‘atlar tuzishda katta samara beradi. Shuning uchun ham lisoniy maydon va til lug‘at tarkibini bunday maydonlarga ajratishning nazariy asoslarini o‘rganish hozirgi o‘zbek tilshunosligi oldidagi eng dolzarb muammolardan sanaladi. Bizningcha, tilni maydon sifatida o‘rganish tilni aks ettirish tabiatini ochishda juda katta ahamiyatga ega, chunki obyektiv olam bir butun sistema sanalib, sistemaning uzvlari muayyan mikroolamlardan iborat bo‘ladi. Bu mikroolam inson ongi orqali tilda o‘z ifodasini topadi. Demak, tilni maydon sifatida o‘rganish til va madaniyat munosabatini yorqin ifodalashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Соссюр, Ф. де. Курс общей лингвистики. / Ф. де Соссюр; пер. с фр. Л.М. Сухотина. – М.: Соцэкиз, 1933. – С. 55.
2. Соссюр, Ф. де. Указ. соч. – С. 155.
3. Соссюр, Ф. де. Курс общей лингвистики./ Ф. де Соссюр; пер. с фр. Л.М. Сухотина. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 155–156.
4. Карапулов, Ю.Н. Общая и русская идеография. / Ю.Н. Карапулов. – М.: Наука, 1976. – 356 с
5. Ахманова, О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. / О.С. Ахманова. – М.: Учпедгиз, 1957. – 295 с.
6. Карапулов, Ю.Н. Указ. соч. – С. 12.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – Б. 5.
8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент, 2002. – Б.22.
9. Карапулов, Ю.Н. Общая и русская идеография. / Ю.Н. Карапулов. – М.: Наука, 1976.